

Tahlil qilingan tadqiqotlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, xalqaro baholash dasturlarini O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarni izchil amalga oshirishni talab etadi: birinchidan, o'quv dasturlari va darsliklarni PISA, TIMSS va PIRLS kompetensiyalariga mos ravishda takomillashtirish; ikkinchidan, o'qituvchilarning funksional savodxonlik va zamonaviy baholash metodlari bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish; uchinchidan, milliy baholash tizimini xalqaro metodologiyalar bilan uyg'unlashtirish; to'rtinchidan, hududlar kesimida ta'lim sifati monitoringini kuchaytirish; beshinchidan, ota-onalar va jamiyatni ta'lim sifati oshirish jarayoniga faol jalb etish.

Demak, xalqaro baholash modellari O'zbekistonda ta'lim sifati oshirish, ta'lim boshqaruvini ilmiy asoslash, o'quvchilarning xalqaro reytinglardagi natijalarini yaxshilash va raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishning muhim strategik vositasi hisoblanadi. Ularni milliy ta'lim tizimiga chuqur integratsiya qilish mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, innovatsion rivojlanishi va global bilimlar makonida munosib o'rin egallashini ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-5085887>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4097073>
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ta'lim sifati baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. PISA, TIMSS va PIRLS bo'yicha metodik qo'llanmalar. – Toshkent, 2021–2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Milliy o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
5. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik bo'yicha o'quv-metodik materiallar. – Toshkent, 2023.
6. Organisation for Economic Co-operation and Development. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 390 p.
7. Organisation for Economic Co-operation and Development. PISA 2022 Results (Volume II): Learning During and Beyond Disruption. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 350 p.
8. International Association for the Evaluation of Educational Achievement. PIRLS 2021 International Results in Reading. – Chestnut Hill, MA; Amsterdam: TIMSS & PIRLS International Study Center; International Association for the Evaluation of Educational Achievement, 2023. – 420 p.
9. International Association for the Evaluation of Educational Achievement. TIMSS 2023 International Results in Mathematics and Science. – Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2024. – 500 p.
10. Schleicher, Andreas. World Class: How to Build a 21st-Century School System. – Paris: OECD Publishing, 2018. – 297 p.

XALQARO LOYIHALARDA KOMMUNIKATSIYA RISKLARINI KAMAYTIRISHDA INGLIZ TILI ASOSIDA SAMARALI ALOQA TIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Zoxirova Aziza Soxib qizi

Bank Moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro loyihalarda yuzaga keladigan kommunikatsiya risklarini kamaytirishda ingliz tilining universal ishchi til sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Turli madaniyat va tillarga

mansub loyiha ishtirokchilari o'rtasida samarali axborot almashinuvi, o'zaro tushunish va hamkorlikni ta'minlashda ingliz tiliga asoslangan aloqa tizimining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, til kompetensiyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya, raqamli aloqa vositalari va standartlashtirilgan kommunikatsiya strategiyalarining loyiha boshqaruvidagi risklarni kamaytirishga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari xalqaro loyihalarda kommunikatsiya jarayonlarini optimallashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro loyihalar, kommunikatsiya risklari, ingliz tili, samarali aloqa tizimi, loyiha boshqaruvi, madaniyatlararo kommunikatsiya, til kompetensiyasi, raqamli kommunikatsiya, risklarni boshqarish, xalqaro hamkorlik.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОЙ СИСТЕМЫ КОММУНИКАЦИИ НА ОСНОВЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ СНИЖЕНИЯ КОММУНИКАЦИОННЫХ РИСКОВ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОЕКТАХ

Зохинова Азиза Сохиб кизи
магистрант Банковско-финансовой академии

Аннотация: В данной статье анализируется роль английского языка как универсального рабочего языка в снижении коммуникационных рисков в международных проектах. Рассматривается значение системы коммуникации, основанной на английском языке, для обеспечения эффективного обмена информацией, взаимопонимания и сотрудничества между участниками проекта, представляющими различные языковые и культурные среды. Особое внимание уделяется влиянию языковой компетентности, межкультурной коммуникации, цифровых средств связи и стандартизированных коммуникационных стратегий на снижение рисков в управлении проектами. Результаты исследования направлены на оптимизацию коммуникационных процессов и повышение эффективности управления международными проектами.

Ключевые слова: международные проекты, коммуникационные риски, английский язык, эффективная система коммуникации, управление проектами, межкультурная коммуникация, языковая компетентность, цифровая коммуникация, управление рисками, международное сотрудничество.

DEVELOPING AN EFFECTIVE ENGLISH-BASED COMMUNICATION SYSTEM TO REDUCE COMMUNICATION RISKS IN INTERNATIONAL PROJECTS

Zoxirova Aziza Soxib kizi
Master's student of the Banking and Finance Academy

Abstract: This article analyzes the role of English as a universal working language in reducing communication risks in international projects. The study highlights the importance of establishing an English-based communication system to ensure effective information exchange, mutual understanding, and collaboration among project participants from diverse linguistic and cultural backgrounds. Particular attention is paid to the impact of language proficiency, intercultural communication, digital communication tools, and standardized communication strategies on minimizing risks in project management. The findings contribute to optimizing communication processes and improving management efficiency in international projects.

Keywords: international projects, communication risks, English language, effective communication system, project management, intercultural communication, language proficiency, digital communication, risk management, international cooperation.

Kirish. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi hamda transmilliy hamkorlik aloqalarining kengayishi natijasida xalqaro loyihalarni samarali boshqarish masalasi zamonaviy ilmiy va amaliy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda yirik infratuzilmaviy, investitsion, innovatsion, ilmiy-ta'lim va axborot texnologiyalari loyihalari ko'pincha turli mamlakatlar vakillari, xalqaro tashkilotlar, investorlar va mutaxassislar ishtirokida amalga oshirilmoqda. Bunday loyihalarda kommunikatsiya jarayonining to'g'ri tashkil etilishi loyiha muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Project Management Institute tomonidan e'lon qilingan A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK® Guide)da kommunikatsiya loyiha boshqaruvinin eng muhim bilim sohalaridan biri sifatida ko'rsatilib, axborot almashinuvidagi xatolar loyiha natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan.

Jahon amaliyotida olib borilgan tadqiqotlar kommunikatsiya bilan bog'liq muammolar xalqaro loyihalarning muvaffaqiyatsizlikka uchrashining asosiy sabablaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Project Management Institutening "Pulse of the Profession" hisobotlariga ko'ra, loyihalarda yuzaga keladigan xatolarning katta qismi manfaatdor tomonlar o'rtasidagi noto'g'ri yoki yetarli bo'lmagan kommunikatsiya bilan bog'liq. Geert Hofstedening madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasida ta'kidlanganidek, turli madaniy qadriyatlar, til farqlari va ish uslublari xalqaro jamoalarda tushunmovchiliklarni keltirib chiqarib, qaror qabul qilish jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli, xalqaro loyihalarda yagona va umumiy ishchi tilning mavjudligi kommunikatsion risklarni kamaytirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hozirgi davrda ingliz tili xalqaro biznes, fan, texnologiya va loyiha boshqaruvi sohalarida global kommunikatsiya vositasi sifatida shakllangan. British Council ma'lumotlariga ko'ra, ingliz tili dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida rasmiy yoki ishchi til sifatida qo'llanilib, xalqaro tashkilotlar va kompaniyalarning asosiy muloqot vositasiga aylangan. World Economic Forum hisobotlarida ham xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini puxta bilish XXI asrning eng muhim kasbiy kompetensiyalaridan biri sifatida qayd etiladi. Ingliz tilining xalqaro loyihalarda qo'llanilishi ma'lumotlarni standartlashtirish, terminologik aniqlikni ta'minlash, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni kuchaytirish va qaror qabul qilish tezligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va eksport salohiyatini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida mamlakatda xalqaro moliya institutlari, donor tashkilotlar va xorijiy kompaniyalar ishtirokidagi investitsion hamda innovatsion loyihalar soni keskin ortdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmoni bilan o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi oshirilishi bilan bir qatorda, xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaror asosida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish va xalqaro standartlarga mos mutaxassislar tayyorlash bo'yicha tizimli choralar belgilandi.

Bugungi kunda Ministry of Investments, Industry and Trade of the Republic of Uzbekistan, World Bank, Asian Development Bank, Islamic Development Bank va boshqa xalqaro institutlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalarda ingliz tili asosiy ishchi tillardan biri sifatida qo'llanilmoqda. Mazkur loyihalarda texnik hujjatlar, tender materiallari, hisobotlar, muzokaralar va monitoring jarayonlarining aksariyati ingliz tilida olib boriladi. Shu bois loyiha ishtirokchilarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, standartlashtirilgan aloqa mexanizmlarini joriy etish va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish amaliy zaruratga aylanmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xalqaro loyihalarda kommunikatsiya risklarini kamaytirishda ingliz tili asosida samarali aloqa tizimini shakllantirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ingliz tilining global kommunikatsiya vositasi sifatidagi rolini chuqur tahlil qilish, xalqaro loyiha boshqaruvida uchraydigan kommunikatsion xavflarni aniqlash hamda ularni minimallashtirishga xizmat qiluvchi samarali metod va mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari xalqaro loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirish, tashkilotlarning

raqobatbardoshligini kuchaytirish va O'zbekistonning xalqaro hamkorlik salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Xalqaro loyihalarda kommunikatsiya risklarining nazariy asoslari. Xalqaro loyihalar turli davlatlar, tashkilotlar va madaniy muhit vakillarining yagona maqsad sari yo'naltirilgan hamkorlik faoliyatini ifodalaydi. Bunday loyihalarning muvaffaqiyati nafaqat texnik, moliyaviy yoki tashkiliy resurslarga, balki loyiha ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuvi qanday tashkil etilganiga ham bevosita bog'liqdir. Loyiha boshqaruvi nazariyasida kommunikatsiya risklari deganda axborotning noto'g'ri talqin qilinishi, kechikib yetkazilishi, to'liq bo'lmagan shaklda uzatilishi yoki manfaatdor tomonlar tomonidan turlicha tushunilishi natijasida yuzaga keladigan salbiy holatlar tushuniladi. Project Management Institutening A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK® Guide)ga ko'ra, loyiha natijalarining barqarorligi kommunikatsiya jarayonlarining rejalashtirilgan, nazorat qilinadigan va standartlashtirilgan holda tashkil etilishiga bog'liq.

Kommunikatsiya risklarining asosiy manbalari sifatida lingvistik tafovutlar, madaniy stereotiplar, kasbiy terminologiyaning turlicha talqin qilinishi, vaqt zonalarini farqi, raqamli platformalardan foydalanishdagi nomuvofiqlik hamda qaror qabul qilish usullaridagi farqlar ko'rsatiladi. Edward T. Hall va Geert Hofstedening tadqiqotlari madaniyatlararo tafovutlar kommunikatsiya samaradorligiga bevosita ta'sir qilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ayniqsa, yuqori kontekstli va past kontekstli madaniyatlar o'rtasidagi farqlar yozma va og'zaki muloqotning mazmunini turlicha idrok etilishiga sabab bo'ladi.

Ingliz tilining xalqaro loyiha boshqaruvidagi funksional ahamiyati. Ingliz tili bugungi kunda xalqaro biznes, ilm-fan, texnologiya va boshqaruv sohalarida eng keng qo'llaniladigan ishchi til hisoblanadi. British Council ma'lumotlariga ko'ra, ingliz tilini bilish transmilliy hamkorlikning samaradorligini oshiruvchi muhim kompetensiyalardan biridir. Xalqaro loyihalarda ingliz tilidan foydalanish bir necha strategik ustunliklarni ta'minlaydi.

Birinchidan, ingliz tili turli millat vakillari o'rtasida yagona terminologik maydonni shakllantiradi. Bu loyiha maqsadlari, texnik talablar, vaqt jadvallari va hisobotlarning bir xil tushunilishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, ingliz tili asosida yuritiladigan standart hujjatlar (Terms of Reference, Project Charter, Risk Register, Progress Report) axborotning izchilligini ta'minlaydi. Uchinchidan, xalqaro raqamli platformalar, jumladan Microsoft Teams, Slack, Asana va Jira interfeyslarining asosiy tili ingliz tili bo'lgani sababli, undan samarali foydalanish boshqaruv tezligini oshiradi.

Kommunikatsiya risklarini kamaytirishning amaliy mexanizmlari. Xalqaro loyihalarda kommunikatsiya risklarini minimallashtirish uchun tizimli yondashuv zarur. Birinchi navbatda, loyiha boshida Communication Management Plan ishlab chiqilishi lozim. Ushbu hujjatda axborot almashish kanallari, hisobotlar formati, javobgarlik darajalari, uchrashuvlar davriyligi va rasmiy ish tili aniq belgilanadi.

Ikkinchi muhim yo'nalish — loyiha ishtirokchilarining ingliz tilidagi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdir. Bu jarayon umumiy til bilish darajasi bilan cheklanmay, texnik terminologiya, muzokara olib borish, elektron yozishmalar va prezentatsiya ko'nikmalarini ham qamrab olishi kerak. Common European Framework of Reference for Languages mezonlariga asoslangan B2–C1 darajadagi til kompetensiyasi xalqaro loyihalarda samarali kommunikatsiya uchun yetarli deb hisoblanadi.

Uchinchisi mexanizm madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish bilan bog'liq. Loyiha ishtirokchilari turli madaniyat vakillarining kommunikativ xususiyatlari, ish olib borish axloqi va qaror qabul qilish usullarini bilishi zarur. To'rtinchidan, raqamli kommunikatsiya vositalaridan standart foydalanish muhim ahamiyatga ega. Yagona fayl nomlash tizimi, versiyalarni boshqarish, uchrashuv protokollari va avtomatik tarjima vositalaridan oqilona foydalanish axborot yo'qotilishini kamaytiradi.

O'zbekiston tajribasi va rivojlanish istiqbollari. O'zbekistonda xalqaro investitsion, ilmiy va ta'lim loyihalarining ko'payishi mutaxassislarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasiga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirdi. World Bank, Asian Development Bank, Japan International Cooperation Agency va United Nations Development Programme bilan amalga oshirilayotgan loyihalarda ingliz tili asosiy ishchi vositalardan biri hisoblanadi.

Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasalari va malaka oshirish markazlarida "Project English", "Business Communication" va "Intercultural Communication" kabi amaliy yo'naltirilgan kurslarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, davlat va xususiy sektor tashkilotlarida kommunikatsiya auditini o'tkazish, ingliz tilidagi standart hujjatlar bazasini yaratish va sun'iy intellektga asoslangan tarjima hamda tahlil vositalaridan foydalanish xalqaro loyihalar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shunday qilib, xalqaro loyihalarda kommunikatsiya risklarini kamaytirish ingliz tiliga asoslangan, standartlashtirilgan va madaniyatlararo yondashuvga tayanuvchi kompleks aloqa tizimini shakllantirishni talab etadi. Mazkur tizim axborotning aniqligi, tezkorligi va bir xilda tushunilishini ta'minlab, loyiha boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro loyihalarda kommunikatsiya jarayonlarining samaradorligi loyiha boshqaruvining strategik muvaffaqiyat omillaridan biri hisoblanadi. Turli mamlakatlar, madaniyatlar va professional muhit vakillari ishtirok etadigan loyihalarda axborot almashinuvi jarayonidagi noaniqliklar, terminologik tafovutlar, til kompetensiyasining yetarli emasligi hamda madaniyatlararo tafakkur farqlari kommunikatsiya risklarining asosiy manbalarini tashkil etadi. Mazkur risklar loyiha muddatlarining uzayishi, resurslardan samarasiz foydalanish, qaror qabul qilishning sekinlashuvi va manfaatdor tomonlar o'rtasida ishonch darajasining pasayishiga olib keladi.

Tadqiqot davomida ingliz tilining xalqaro loyihalarda universal ishchi til sifatidagi funksional ahamiyati ilmiy jihatdan asoslandi. Ingliz tili asosida tashkil etilgan yagona kommunikatsiya tizimi texnik hujjatlarning bir xil talqin qilinishini, loyiha maqsadlarining aniq ifodalanishini, vazifalarning muvofiqlashtirilishini va nazorat mexanizmlarining izchil ishlashini ta'minlaydi. Shuningdek, ingliz tilidagi kasbiy kompetensiya va madaniyatlararo kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish xalqaro jamoalarda o'zaro tushunish darajasini oshirib, xatoliklar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi.

O'zbekiston sharoitida xalqaro moliya institutlari, donor tashkilotlar va xorijiy hamkorlar ishtirokidagi investitsion, innovatsion va ta'lim loyihalarining ko'payishi mutaxassislarining ingliz tilidagi kommunikativ salohiyatiga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois ingliz tili asosida samarali aloqa tizimini shakllantirish nafaqat alohida loyiha muvaffaqiyatini ta'minlash, balki mamlakatning xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish, institutsional boshqaruv sifatini oshirish va global raqobatbardoshlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Xalqaro loyihalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarda ingliz tiliga asoslangan standart kommunikatsiya reglamentlarini ishlab chiqish va joriy etish.
2. Loyiha menejerlari va mutaxassislar uchun "Project Management English", "Intercultural Communication" va "Business Correspondence" yo'nalishlarida maxsus o'quv dasturlarini tashkil etish.
3. Har bir loyiha uchun Communication Management Plan va Communication Risk Register hujjatlarini majburiy ravishda shakllantirish.
4. Microsoft Teams, Slack, Jira va Asana kabi raqamli platformalardan yagona standart asosida foydalanishni yo'lga qo'yish.
5. Xalqaro loyihalarda ishtirok etuvchi xodimlarning ingliz tilini kamida B2 darajasida egallashini ta'minlash va sertifikatlash tizimini joriy etish.
6. Oliy ta'lim muassasalarining magistratura dasturlariga xalqaro loyiha kommunikatsiyasi va kasbiy ingliz tili bo'yicha amaliy modullarni kiritish.
7. Sun'iy intellektga asoslangan tarjima, matn tahlili va kommunikatsiya monitoringi vositalaridan foydalanishni kengaytirish.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, xalqaro loyihalarda kommunikatsiya risklarini kamaytirishning eng samarali yo'li ingliz tiliga asoslangan, standartlashtirilgan, texnologik va madaniyatlararo yondashuvni o'zida mujassam etgan kompleks aloqa tizimini shakllantirishdan iborat. Bunday tizim axborot oqimlarining aniqligi va uzluksizligini ta'minlab, loyiha boshqaruvi samaradorligini oshiradi hamda O'zbekistonning xalqaro hamkorlikdagi institutsional salohiyatini yanada mustahkamlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son Qarori.
3. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK® Guide). A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK® Guide). – 7th ed. – Newtown Square, PA: Project Management Institute, 2021. – 370 p.
4. Geert Hofstede, Gert Jan Hofstede, Michael Minkov. Cultures and Organizations: Software of the Mind. – 3rd ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2010. – 576 p.
5. Edward T. Hall. Beyond Culture. – New York: Anchor Books, 1976. – 320 p.
6. British Council. The Future of English? – London: British Council, 1995. – 68 p.
7. Common European Framework of Reference for Languages. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe, 2020. – 236 p.
8. Zubayda Jumayeva, Nurbek Khushvaktov, Rustam Nizomov. BIO Web Conf., 173 (2025) 01030. DOI: <https://doi.org/10.1051/bioconf/202517301030>
- World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. – Geneva: World Economic Forum, 2025. – 290 p.
8. World Bank. Project Management and Communication in International Development Projects. – Washington, DC: World Bank, 2022. – 184 p.
9. United Nations Development Programme. Effective Communication for Development Projects. – New York: UNDP, 2021. – 142 p.

AVTOKORRELYATSIYA VA UNI BARTARAF ETISH

Adirov Tolliboy Xasanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

t.adirov@mail.ru

Shomansurov Zafarjon Egamovich

Jizzax shahridagi Qozon (Volga bo'yi) federal universiteti filiali katta o'qituvchisi

ZEShomansurov@kpfu.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Excel dasturidan foydalanib Darbin–Uotson mezonni yordamida ma'lumotlar to'plamida avtokorrelyatsiya mavjudligi ko'rsatiladi va ketma-ket ayirmalar usuli yordamida avtokorrelyatsiya bartaraf etiladi.

Kalit so'zlar: avtokorrelyatsiya, avtorregressiya, korrelogramma, avtokorrelyatsiya funksiyasi, Darbin–Uotson mezon.

АВТОКОРРЕЛЯЦИЯ И ЕЁ УСТРАНЕНИЕ

Адилов Толлибой Хасанович

Профессор Ташкентского государственного экономического университета t.adirov@mail.ru

Шомансуров Зафаржон Эгамович

Старший преподаватель филиала Казанского (Приволжского) федерального университета

в г. Джизаке

ZEShomansurov@kpfu.ru

Аннотация: В данной статье с использованием программы Excel и критерия Дарбина–